



MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA SIFAT VA SAMARADORLIKNI OSHIRISHNING DIDAKTIK IMKONIYATLARI

Buxoro viloyati Vobkent tumani
22-son DMTT direktori
Esanova Mahliyo Faxriddinovna

Annotatsiya: *Ushbu maqolada maktabgacha ta'lim tashkilotlarida sifat va samaradorlikni oshirishning didaktik imkoniyatlari ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilingan. Ta'lim jarayonini samarali tashkil etishda didaktik tamoyillar, ta'lim mazmuni, metod va vositalarning o'rni, "Ilk qadam" davlat o'quv dasturi asosida kompetensiyaviy yondashuvni joriy etish, zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish, o'yin faoliyatini ta'lim jarayoniga integratsiyalash hamda individual yondashuvni qo'llashning ahamiyati haqida ma'lumot berilgan.*

Kalit so'zlar: *maktabgacha ta'lim, ta'lim sifati, samaradorlik, didaktik imkoniyatlar, kompetensiyaviy yondashuv, pedagogik texnologiyalar, individual yondashuv.*

Bugungi kunda ta'lim tizimini takomillashtirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylandi. Alohida ta'kidlash lozimki ayniqsa, maktabgacha ta'lim uzluksiz ta'limning poydevori sifatida alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki aynan ushbu davrda bolaning har tomonlama ya'ni, intellektual salohiyati, ijtimoiylashuvi, axloqiy va shaxs sifatleri shakllanish jarayoni boshlanadi.

Mamlakatimizda maktabgacha ta'lim tizimini tubdan isloh qilish, undagi qamrov darajasi, sifat va samaradorlikni oshirish maqsadida keng ko'lamli ishlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, Maktabgacha ta'lim vazirligining tashkil etilishi hamda "Ilk qadam" davlat o'quv dasturining joriy qilinishi ta'lim jarayonini yangi bosqichga olib chiqdi. Ushbu dastur asosida bolalarning yosh va individual xususiyatlarini inobatga olgan holda o'yinlar orqali ta'limni tashkil etish, kompetensiyaviy yondashuvni tatbiq etish yo'lga qo'yildi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida sifat va samaradorlikni oshirish ko'p jihatdan ta'lim jarayonining didaktik jihatdan to'g'ri tashkil etilishiga bog'liqdir. Didaktik imkoniyatlar deganda ta'lim mazmuni, metodlari, vositalari, shakllari hamda pedagogik texnologiyalarni maqsadga muvofiq qo'llash orqali yuqori natijalarga erishish imkoniyatlari tushuniladi. Zamonaviy pedagogik yondashuvlar, interaktiv metodlar, o'yin texnologiyalari va individual ta'lim strategiyalari bolalarning bilish faolligini oshirish, mustaqil fikrlashini rivojlantirish hamda maktab ta'limiga sifatli tayyorlashda muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

Maktabgacha ta'lim tizimida ta'lim mazmuni davlat talablariga muvofiq ravishda ishlab chiqilgan bo'lib, xususan "Ilk qadam" davlat o'quv dasturi asosida amalga oshiriladi. Ushbu dastur bolalarning yosh xususiyatlari, individual rivojlanish



darajasi va qiziqishlarini inobatga olgan holda kompetensiyaviy yondashuvni qo'llashni nazarda tutadi. Kompetensiyaviy yondashuv ta'lim jarayonida nafaqat ta'lim berish, balki bolalarda amaliy ko'nikma, mustaqil hamda tanqidiy fikrlash va muammoli vaziyatlarda to'g'ri qaror qabul qilish malakalarini shakllantirishga xizmat qiladi.

Didaktik jihatdan puxta tashkil etilgan ta'limiy faoliyatlar bolalarning bilish darajasini oshiradi, ularni jarayonlarda faol ishtirok etishga undaydi va ta'lim samaradorligini oshiradi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ta'limiy faoliyatlar natijadorligini oshirishning muhim omillaridan biri zamonaviy pedagogik texnologiyalarni joriy etishdir. Interaktiv metodlar, muammoli ta'lim, loyihaviy faoliyat, STEAM texnologiyasi hamda axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish ta'lim jarayonini yanada qiziqarli, sermazmun va samarali qiladi. Masalan, didaktik o'yinlar orqali bolalarda mantiqiy fikrlash, nutq madaniyati, jamoada ishlash ko'nikmalari shakllanadi. Syujetli rolli o'yinlar esa ijtimoiy tajriba oshib borishi, muloqot madaniyatini rivojlantirish va ijtimoiylashuviga yordam beradi. Muammoli vaziyatlarni yaratish orqali bolalar mustaqil fikrlashga, izlanishga va xulosa chiqarishga o'rganadilar. Shuningdek pedagogik texnologiyalar ta'lim jarayonini bolalarning tabiiy ehtiyojlariga mos ravishda tashkil etish imkonini beradi. Bu esa o'z navbatida ta'lim sifatini oshiradi va samaradorlikni ta'minlaydi.

Maktabgacha yoshdagi bolalar o'zining psixologik va fiziologik xususiyatlari bilan bir-biridan farq qiladi. Shu bois ta'lim jarayonida individual yondashuv muhim didaktik imkoniyat sifatida namoyon bo'ladi. Individual yondashuv orqali har bir bolaning qiziqishi, qobiliyati va rivojlanish sur'ati hisobga olinadi. Individual yondashuv ta'lim samaradorligini oshirish bilan birga, bolalarning o'ziga bo'lgan ishonchini mustahkamlaydi va ularning ijtimoiy faolligini kuchaytiradi.

Barchamizga ma'lumki, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ta'lim sifati bevosita pedagog kadrlarning kasbiy mahoratiga ham bog'liqdir. Tarbiyachining metodik tayyorgarligi, innovatsion yondashuvlarni qo'llay olishi, bolalar psixologiyasini chuqur bilishi ta'lim samaradorligini belgilovchi asosiy omillardan hisoblanadi.

Shunday ekan, pedagoglarning malakasini muntazam oshirib borish, metodik seminar-treninglar tashkil etish, ilg'or tajribalarni ommalashtirish muhim ahamiyatga ega. Zamonaviy talablarga javob beradigan pedagog kadrlar ta'lim jarayonini didaktik jihatdan to'g'ri tashkil eta oladi va yuqori natijalarga erishadi.

Xulosa qilib aytganda, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida sifat va samaradorlikni oshirish uzluksiz ta'lim tizimini rivojlantirishning muhim shartlaridan biridir. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, ta'lim jarayonining didaktik jihatdan puxta va maqsadga muvofiq tashkil etilishi bolalarning har tomonlama rivojlanishini ta'minlaydi hamda ularni maktab ta'limiga sifatli tayyorlashga xizmat qiladi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ta'lim mazmunini takomillashtirish, xususan "Ilk qadam" davlat o'quv dasturi asosida kompetensiyaviy yondashuvni joriy etish,



zamonaviy pedagogik texnologiyalardan samarali foydalanish, o'yin faoliyatini ta'lim jarayoniga integratsiyalash hamda individual yondashuvni qo'llash muhim didaktik imkoniyatlar hisoblanadi.

Shuningdek, tarbiyachilarning kasbiy kompetensiyasini oshirish, innovatsion metodlarni amaliyotga tatbiq etish va ta'lim jarayonini muntazam monitoring qilish orqali ta'lim sifatini yanada oshirish mumkin. Oila va maktabgacha ta'lim tashkiloti o'rtasidagi hamkorlikning mustahkamlanishi esa bolalarning barqaror rivojlanishini ta'minlaydi. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida sifat va samaradorlikni oshirishning didaktik imkoniyatlaridan oqilona va tizimli foydalanish ta'lim jarayonining samaradorligini sezilarli darajada oshiradi hamda barkamol avlodni shakllantirishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOT:

1. M.X. Toxtaxodjaevaning umumiy tahriri ostida. Pedagogika. Darslik.T.: O'zbekistan faylasuflari Milliy jamiyati, 2010 y. -400 bet.
2. R.Ishmuhammedov, M.Yuldashev. Ta'lim va tarbiyada innovatsion pedagogik texnologiyalar. O'quv qo'llanma. – T.: 2013 y. -279 bet.
3. O'.Q. Tolipov, M. Usmonboyeva. Pedagogik texnologiyalarning tatbiqiy asoslari. O'quv qo'llanma. - T.: 2006 y. -264 bet.
4. B.X. Xodjayev. Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti. Darslik. - T.: «Sano-standart» nashriyoti, 2017 yil. -416 bet.
5. Sh.S. Shodmonova va boshqalar. Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti. – T.: "Fan va texnologiya". 2019 y. -296 bet.
6. A.A. Xoliqov. Pedagogik mahorat. Darslik. Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi. – T.: Iqtisod-moliya, 2011 y. -420 bet.
7. M.E. Axmedova. Pedagogika nazariyasi va tarixi. (Pedagogika tarixi). O'quv qo'llanma. O'zR oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi. - T.: Tafakkur bo'stoni, 2011y. - 128 bet.
8. N.T. Omonov, N.X. Xo'jayev, S.A. Madyarova, E.U. Eshchonov. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. Darslik.– T.: "Iqtisod-moliya" 2009 y. – 240 bet.
9. B.X. Xodjaev. Umumiy pedagogika. Darslik. – T.: "Sano-standart", 2017 y. - 434 bet.
10. Raxmonova Sojida Muxammadovna. "PREPARING THE GRADUATE STUDENTS OF PRIMARY EDUCATION FOR INNOVATIVE PROFESSIONAL ACTIVITY". Web of Scientist: International Scientific Research Journal (WoS) ISSN: 2776-0979, Volume 4, Issue 8, August, 2023. Pages 288-293
11. Raxmonova Sojida Muxammadovna. "PRACTICAL FEATURES OF PREPARING PRIMARY EDUCATION STUDENTS FOR PROFESSIONAL



ACTIVITY" SCIENCE AND INNOVATION IN THE EDUCATION SYSTEM, 2(9), 67–71. <https://doi.org/10.5281/zenodo.8314153>. 31.08.2023 y

12. Рахмонова Сожида Мухаммадовна. "ПЕДАГОГИКО-ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ ПОДГОТОВКИ УЧИТЕЛЕЙ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ К ИННОВАЦИОННОЙ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ. . Innovative research in the modern world: theory and practice, 2(23), 92–94с. 11(39)-son 31.08.2023 y

13. S.M.Raxmonova DIDACTIC POSSIBILITIES OF IMPROVING THE METHODOLOGY FOR PREPARING FUTURE EDUCATORS OF THE PRESCHOOL EDUCATIONAL ORGANIZATION FOR INNOVATIVE PROFESSIONAL ACTIVITIES. Pindus Journal of Culture, Literature, and ELT ISSN: 2792 – 1883 | Volume 2 No. 12

<https://literature.academicjournal.io> 16.12.2022 y.36-40 bet.

14. S.M. Raxmonova МАКТАБГАЧА ТАЪЛИМ ЁШИДАГИ БОЛАЛАРГА ТАЪЛИМ БЕРИШДА КОМПЕТЕНЦИЯВИЙ ЁНДАШУВ. Respublika OAK. Илимий-методикалық журнал 5/1 2022 y.101-105 bet

15. S.M. Raxmonova BO'LAJAK PEDAGOGLARNI INNOVATSION KASBIY FAOLIYATGA TAYYORLASHDA O'Z-O'ZINI SHAKLLANTIRISH VA MUKAMMALLASHTIRISHGA O'RGATISH. Respublika OAK. Илимий-методикалық журнал. ¾. 2023 y. 141-146